Madaniyat va san’atni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun bir guruh hamyurtlarimiz taqdirlandi

Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi ishtirokchi davlatlarining Parlamentlararo Assambleyasi Kengashining 2020-yil 27-noyabrdagi qaroriga muvofiq bir qator faollar, ya’ni, 6 nafar O’zbekiston fuqarosi, shu jumladan, Fanlar akademiyasi O’zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori Ismailova Jannat Hamidovna ham Hamdo’stlikka a’zo mamlakatlar xalqlari o’rtasidagi do’stlikni mustahkamlashga qo’shgan hissasi uchun tashkilotning “Madaniyat va san’atni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun” faxriy nishoni bilan taqdirlandi.

Taqdirlanganlarga ushbu mukofotlarni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o’ninchi yalpi majlisi doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva topshirdi (Manba: http://senat.uz/).

Jannat Hamidovnani O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan tabriklaymiz hamda kelgusidagi faoliyatida muvafaqqiyatlar tilaymiz!